

XIII. DEMOGRAFIYA

Doimiy aholi soni

Qoraqalpog‘iston Respublikasining doimiy aholisi soni 2023-yil 1 aprel holatiga 1981,8 ming kishini tashkil etib, 2023-yil boshidan 5,6 ming kishiga ya’ni 0,3 % ga o‘sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 968,7 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 48,9 %), qishloq aholisi soni 1013,1 ming kishini (51,1 %) tashkil etdi.

E’tibor bering: 2023 yil yanvar-mart oylarida

- Aholi soni **5,6 ming kishiga** ko‘paydi.
- Tirik tug‘ilganlar soni **9,8 ming nafarni** tashkil etdi.
- Vafot etganlar soni **2,4 ming nafarni** tashkil etdi.
- Nikohlar soni **3,6 ming nafarni** tashkil etdi.
- Ajrimlar soni **0,6 ming nafarni** tashkil etdi

2023-yilning Yanvar-mart oylarida

Yilboshida
Doimiy aholi soni
1 976 222 kishi
(2023 yil 1 yanvar holatiga)



9,8 *ming bola*

Tug‘ilganlar soni



2,4 *ming kishi*

O‘lganlar soni



2,2 *ming kishi*

Ko‘chib kelganlar soni



4,0 *ming kishi*

Ko‘chib ketganlar soni

Doimiy aholi soni
1 981 845 kishi
(2023-yilning 1 aprel holatiga)

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha doimiy aholi soni¹⁾ (2023-yilning 1-aprel holatiga, ming kishi)

	<i>Jami aholi</i>	<i>Shu jumladan:</i>	
		<i>shahar aholisi</i>	<i>qishloq aholisi</i>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1 981,8	968,7	1 013,1
Nukus sh.	335,5	335,5	-
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	209,4	54,0	155,4
Beruniy	202,0	71,2	130,8
Bo‘zatov	21,9	5,5	16,4
Qonliko‘l	53,3	13,5	39,8
Qorao‘zak	54,1	16,3	37,8
Kegeyli	74,3	30,0	44,3
Qo‘ng‘irot	134,9	85,2	49,7
Mo‘ynoq	33,5	14,8	18,7
Nukus	53,1	10,7	42,4
Taxiatosh	76,4	54,6	21,8
Taxtako‘pir	38,9	16,7	22,2
To‘rtko‘l	225,6	84,8	140,8
Xo‘jayli	127,6	81,3	46,3
Chimboy	115,1	58,9	56,2
Shumanay	57,7	15,1	42,6
Ellikqal’a	168,5	20,6	147,9

¹⁾dastlabki ma'lumot

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha doimiy aholi soni
(1 aprel holatiga ming kishi)

	2022 y.	2023 y.	<i>O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur‘ati % da</i>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1 955,6	1 981,8	101,3
Nukus sh.	330,6	335,5	101,5
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	205,6	209,4	101,8
Beruniy	198,2	202,0	101,9
Bo‘zatov	21,8	21,9	100,5
Qorao‘zak	53,7	54,1	100,7
Kegeyli	73,8	74,3	100,7
Qo‘ng‘irot	133,2	134,9	101,3
Qonliko‘l	52,6	53,3	101,3
Mo‘ynoq	33,2	33,5	100,9
Nukus	52,1	53,1	101,9
Taxiatosh	75,7	76,4	100,9
Taxtako‘pir	40,7	38,9	95,6
To‘rtko‘l	221,8	225,6	101,7
Xo‘jayli	126,0	127,6	101,3
Chimboy	114,2	115,1	100,8
Shumanay	57,2	57,7	100,9
Ellikqal‘a	165,2	168,5	102,0


Yanvar-mart oylarida aholining tabiiy harakati

	<i>kishi</i>			<i>har 1000 kishiga nisbatan promille</i>	
	<i>2022 y.</i>	<i>2023 y.¹⁾</i>	<i>o‘shish, kamayish</i>	<i>2022 y.</i>	<i>2023 y.²⁾</i>
Tug‘ilganlar	9 666	9 804	138	20,1	20,1
O‘lganlar	2 319	2 350	31	4,8	4,8
Tabiiy o‘shish	7 347	7 454	107	15,3	15,3
Nikohlar	4 149	3 647	-502	8,6	7,5
Ajralishlar	554	567	13	1,2	1,2

Tug‘ilish darajasi. 2023 yilning yanvar-mart oylarida tug‘ilganlar soni 9 804 bolani tashkil qildi va 2022 yilning shu davriga (9 666 bola) nisbatan 138 bolaga yoki 1,4 foizga ko‘paydi. Tug‘ilish koeffitsienti mos ravishda 20,1 promilleni tashkil qildi va 2022 yilning shu davrida ham (20,1 promille) ni tashkil qildi.

Aholining tabiiy harakati koeffitsientlari

(yanvar-mart oylarida)(1000 aholi soniga nisbatan promille)



Tug‘ilish darajasining ko‘payishi Respublikaning deyarli barcha hududlarida qayd etildi. Bu ko‘rsatkichning yuqori darajasi Ellikqal‘ada 19,8 dan 23,5 promillega, Nukus tumanida 22,6 dan 24,8 promillega, Xo‘jaylida 19,9 dan 21,9 promillega, va Beruniyda 21,7 dan 22,8 promillega ko‘payishi kuzatilgan.

¹⁾ dastlabki ma'lumot


²⁾ dastlabki ma'lumot

Tug‘ilish. 2023-yilning yanvar-mart oylarida 9,8 mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va keyinchalik tug‘ilganlarga faqat tiriktug‘ilganlar inobatga olingan) mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsienti 20,1 promilleni tashkil etdi hamda 2022 yilning mos davrida ham 20,1 promille bo‘lganligi kuzatildi.

Ma'lumot uchun


Tirik tug‘ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa ham bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim.

Tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsienti
(2023 yilning yanvar-mart oylarida)




O‘lim darajasi. 2023 yilning yanvar-mart oylarida o‘lganlar soni 2 350 kishini tashkil qildi va 2022 yilning shu davriga (2 319 kishi) nisbatan 31 kishiga yoki 1,3 foizga ko‘paydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsienti 4,8 promilleni tashkil qildi (2022 yilning yanvar-mart oylarida 4,8 promille).

2023 yilning yanvar-mart oylarida asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan foiz hisobida)



O‘lim koeffitsientlari




O‘lim ko‘rsatkichlarining yuqori darajasi Taxtakopirda (4,3 dan 13,4 promillega), Qorao‘zakda (5,4 dan 7,9 promillega), Chimboyda (4,9 dan 7,1 promillega), va Shumanayda (2,6 dan 4,6 promillega) ko‘payishi kuzatilgan.

Nikoh. 2023 yilning yanvar-mart oylarida FHDYo organlari tomonidan 3,6 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 7,5 promilleni tashkil etdi.




Tumanlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va koeffitsienti
(2023 yilning yanvar-mart oylari holatiga 1000 aholiga nisbatan promille)



Nikohdan ajralishlar. 2023 yilning yanvar-mart oylarida FHDYo organlari tomonidan 0,6 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 1,2 promilleni tashkil etdi.

Tumanlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti (2023 yilning yanvar-mart oylari holatiga)



Nikohlar va ajralishlar. 2023 yilning yanvar-mart oylari FHDYo organlarida 3 647 ta nikohlar va 567 ta ajralishlar ro‘yxatga olingan. Ming aholiga nisbatan 7,5 ta nikoh (2022 yilning tegishli davrida 8,6 ta) va 1,2 ta ajralishlar (2022 yilning tegishli davrida 1,2 ta) to‘g‘ri kelgan.

Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni (yanvar-mart oylarida, birlik)

	Tuzilgan nikohlar		Nikohdan ajralishlar	
	2022 y.	2023 y. ²⁾	2022 y.	2023 y. ²⁾
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	4 149	3 647	554	567
Nukus sh.	623	514	131	119
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	516	462	52	44
Beruniy	511	424	47	63
Bo‘zatov	45	17	6	6
Qonliko‘l	76	77	11	17
Qorao‘zak	118	92	19	21
Kegeyli	150	131	19	20
Qo‘ng‘iro‘t	296	249	37	49
Mo‘ynoq	59	42	11	8
Nukus	138	114	16	15
Taxiatosh	148	87	15	11
Taxtako‘pir	65	77	18	19
To‘rtko‘l	426	492	43	42
Xo‘jayli	263	234	34	47
Chimboy	234	200	33	34
Shumanay	97	80	13	14
Ellikqal‘a	384	355	49	38

Migratsiya¹(Ichki va tashqi). Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra 2023 yilning yanvar-mart oylarida Respublika bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni 2 172 kishini, shu davr mobaynida ko‘chib ketganlar soni esa 4 003 kishini tashkil qilgan.

Aholimigratsiyasi (kishi)


	2022 yilning yanvar-mart oylarida	2023 yilning yanvar-mart oylarida
Ko‘chib kelganlar	2 439	2 172
Ko‘chib ketganlar	2 638	4 003
Migratsiya saldosı	-199	-1 831

2023 yilning yanvar-mart oylarida migratsiya qoldig‘i minus 1 831 kishiga (2022 yilning shu davrida minus 199 kishi) teng bo‘ldi. Eng katta minus qoldiqlar Chimboy (minus 233), Xo‘jayli (minus 191) va Qo‘ng‘irot (minus 166) tumanlarida kuzatilgan.


yanvar-mart oylarida

Soni, ming kishi

Ko‘chib kelganlar



Ko‘chib ketganlar



¹ shaharvatumanlarhamdahududlararoichkimigratsiyaniqo‘shganholda
² dastlabki ma’lumot




Poytaxtdagi demografik holat



Qoraqalpog‘iston Respublikasi poytaxti Nukus shahrining doimiy aholisi soni 2023 yil 1 aprel holatiga 335,5 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 0,9 ming kishiga yoki 0,3 % ga o‘sgan.

Nukus shahri aholisi tabiiy harakati (1000 aholiga nisbatan promille)



2023 yilning yanvar-mart oylarida 1,7 ming bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda tug‘ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 20,2 promilleni tashkil etdi (2022 yilning mos davrida 19,7 promille bo‘lgan).

FXDYo organlarida 2023 yilning yanvar-mart oylarida 514 ta nikoh va 119 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan.

Shuningdek, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 6,2 promilleni tashkil qilib, 2022 yilning mos davriga nisbatan 1,5 promillega kamaygan (2022 yilning mos davrida 7,7 promille bo‘lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 1,4 promilleni tashkil etib, 2022 yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega kamaydi. 2022 yilning mosdavrida 1,6 promille bo‘lgan.

Nukus shahrida tuzilgan nikoh va ajrim (yanvar-mart holatiga 1000 aholiga nisbatan promille)

